

**“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 2025 yil yanvar-mart oylarida
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
MA’LUMOTNOMA**

“O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2025-yil I chorakda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi belgilangan **15 175,8 mlrd so‘m** prognoz, amalda **16 085,8 mlrd so‘m**, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **107,2 foizga** etib, belgilangan reja ko‘rsatkich bajarilishi **106,0 foizni** tashkil etdi.

Hisobot davrida, **84 108 dona** “Uzauto Motors” AJda engil avtomobillari, **2 913 dona** BYD avtomobillari hamda **2 125 dona** qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarildi.

Xorijiy davlatlarga **128,0 mln dollarlik** eksporti amalga oshirildi. Mahsulotlar kesimida **104,5 mln dollarlik** yengil avtomobillar hamda **23,5 mln dollarlik** ehtiyot qismlar, qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan umumiy qiymati **218,8 mln dollarlik 21 ta** investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. 2025-yil I chorakda ushbu loyihalar doirasida **22,0 mln dollar** investitsiyalar o‘zlashtirildi (rejaga nisbatan **183,3 foiz**) shundan **15,5 mln dollar** to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida **1,1 trln so‘mlik 10 turdagi** mahsulotlar ishlab chiqarildi (rejaga nisbatan **2,3 barobar**).

Yirik sanoat korxonalarning tannarxi belgilangan prognoz ijrosi bo‘yicha **447,7 mlrd so‘mga** (rejaga nisbatan **140,2 foiz**) kamaytirildi.

2025-yil I chorak yakuni bo‘yicha rentabellik darajasi **3,5 foizni** tashkil etdi.

Tarmoq korxonalari tomonidan jami **578 ta** yangi ish o‘rinlar yaratildi (rejaga nisbatan **2,9 barobar**).